



O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 2 ISS: 5 (2025)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS



| № | MUNDARIJA | Page |
|----|---|------|
| 1. | SUG'URTA KOMPANIYALARI INVESTITSION FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISHDA MOLIYAVIY MEKANIZMLARNING ROLI: NAZARIYA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI <i>Abdullayev Erkinjon A'zamovich</i> | 4 |
| 2. | GLOBALASHUV SHAROITIDA IQTISODIY INTEGRATSIYA VA RAQAMLASHTIRISHNING RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI <i>Nomozova Qumri Isoevna</i> | 8 |
| 3. | МЕХАНИЗМЫ ФИНАНСОВОГО СТИМУЛИРОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА СТРАХОВОГО СЕКТОРА ПОСРЕДСТВОМ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ ПЕРЕСТРАХОВАНИЯ <i>Мухамедов Фарход Турсунбаевич, Муминова Ансора Улугбек кизи</i> | 11 |
| 4. | POLYUTSIYA SUG'URTASI MOHIYATI VA O'ZBEKISTONDA JORIY QILISH MASALALARI <i>Erkaboyev Yorbek Boirbekovich</i> | 14 |
| 5. | ISLOM MOLIYASINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI, AMAL QILISHI BILAN BOG'LIQ O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI <i>Qo'ldoshev Jahongir Qamariddinovich</i> | 17 |
| 6. | XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING ILMIY YONDASHUVLARI <i>Ko'charov Xurshid Xurram o'g'li</i> | 19 |
| 7. | O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGINING SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDA SUG'URTA XIZMATLARINING ROLI <i>Kalenov K.T.</i> | 22 |

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
2. Maqsudov Davron Sanjarxo‘jayevich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktori o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (“O‘zbekinvest” eksport-import sug‘urta kompaniyasi” AJ bosh direktori, iqtisodiyot fanlari doktori).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
5. Abdurahmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
6. Sindarov Sherzod Egamberdiyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
7. Zakirov Latif Xamidullayevich (Moliya vazirligi huzuridagi TKFJMS qoshidagi To‘lovlarni kafolatlash jamg‘armasi direktori).
8. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari uyushmasi kengashi raisi).
9. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash markazi rahbari, dots.).
10. Quldoshv Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, DSc, bosh muharrir).
11. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, prof.).
12. Shennayev Xojayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
13. Boyev Xabibullo Ismoilovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori).
14. Ortiqov Furqat A‘zamjonovich (“Kafil Sug‘urta” AK sug‘urta kompaniyasi direktorlar kengashi raisi).
15. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (O‘zbekiston madaniyat va san‘at instituti professori, i.f.n. dots.).
16. Merident Randles (FSA, MAAA. Principal & Consulting Actuary. Katta maslahatchi, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
17. Ong Xie (FIA, FSAS. Dastur menejeri, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Olmosh: She/Her).
18. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi rahbari, i.f.b.f.d.).
19. Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich (TDIU “Moliya bozori va sug‘urta” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori).
20. Mutalova Dilorom Maxamadjanovna (TDIU “Soliqlar va soliqqa tortish” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori).
21. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professori v.b., falsafa fanlari doktori).
22. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU Magistratura bo‘yicha dekan o‘rinbosari, i.f.b.f.d., dots.).
23. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori v.b., iqtisodiyot fanlari doktori).
24. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida professori v.b. i.f.d.).
25. Samadov Asqarjon Nishonovich (TDIU “Marketing” kafedrasida dotsenti, universitet Kengashi kotibi, fanlar nomzodi).
26. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, t.f.n. kotib).
27. Qarshiyev Daniyar Eshpo‘latovich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, i.f.n., bosh muharrir).
28. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank-moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
29. Hamdamov Shoh-Jahon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).
30. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).



SUG'URTA KOMPANIYALARI INVESTITSION FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISHDA MOLIVAVIY MEKANIZMLARNING ROLI: NAZARIYA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI

Abdullayev Erkinjon A'zamovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, "Moliya va moliyaviy texnologiyalar" kafedrasida katta o'qituvchisi,
"FAROVON SUG'URTA" AJ Bosh direktori
Email: erkin.azamovich@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada sug'urta kompaniyalari investitsion faoliyatini tartibga solishda moliyaviy mexanizmlarning o'rni va ahamiyati nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilingan. Sug'urta sektori iqtisodiyotning moliyaviy tizimidagi eng muhim bo'g'inlardan biri bo'lib, u investitsion resurslarning shakllanishi va qayta taqsimlanishida faol ishtirok etadi. Shu sababli, sug'urta kompaniyalarining investitsion faoliyatini samarali tartibga solish, ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash va risklarni kamaytirish masalalari alohida dolzarblik kasb etadi.

Maqolada ilgari surilgan ilmiy xulosalar sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini oshirish, investitsion faoliyat samaradorligini ta'minlash va sug'urta bozorining umumiy raqobatbardoshligini mustahkamlashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: investitsiya, moliyaviy mexanizmlar, solvency II, moliyaviy barqarorlik.

Абстрактный: В данной статье теоретически и практически проанализированы роль и значение финансовых механизмов в регулировании инвестиционной деятельности страховых компаний. Страховой сектор является одним из ключевых звеньев финансовой системы экономики, активно участвующим в формировании и перераспределении инвестиционных ресурсов. В связи с этим эффективное регулирование инвестиционной деятельности страховых компаний, обеспечение их финансовой устойчивости и снижение рисков приобретают особую актуальность.

Научные выводы, представленные в статье, направлены на повышение финансовой стабильности страховых компаний, обеспечение эффективности их инвестиционной деятельности и укрепление общей конкурентоспособности страхового рынка.

Ключевые слова: инвестиция, финансовые механизмы, solvency II, финансовая устойчивость.

Abstract: This article provides a theoretical and practical analysis of the role and significance of financial mechanisms in regulating the investment activities of insurance companies. The insurance sector is one of the key components of the financial system, actively involved in the formation and redistribution of investment resources. Therefore, the effective regulation of insurance companies' investment activities, ensuring their financial stability, and reducing risks are of particular importance.

The scientific conclusions presented in the article are aimed at enhancing the financial stability of insurance companies, improving the efficiency of their investment activities, and strengthening the overall competitiveness of the insurance market.

Keywords: investment, financial mechanisms, Solvency II, financial stability.

Kirish (Введение/Introduction).

Bozor iqtisodiyoti sharoitida sug'urta sektori moliyaviy tizimning ajralmas qismi sifatida iqtisodiyotda kapital harakatining muhim ishtirokchisiga aylanmoqda. Sug'urta kompaniyalari nafaqat risklarni taqsimlovchi va moliyaviy barqarorlikni ta'minlovchi institut sifatida, balki investitsion resurslarni samarali joylashtiruvchi iqtisodiy subyekt sifatida ham faoliyat yuritmoqda. Shu jihatdan, ularning investitsion faoliyatini tartibga solish mexanizmlari mamlakat moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda alohida ahamiyat kasb etadi.

"Moliyaviy mexanizm" – bu moliyaviy tizimning institutlari, vositalari va jarayonlari orqali resurslarni taqsimlash, boshqarish va tartibga solish usullarining to'liq majmui sifatida qaraladi. Sug'urta tashkilotlari miqyosida bu mexanizm sug'urta faoliyatidan tushgan mablag'larning investitsiyaga yo'naltirilishi, risklarni moliyaviy jihatdan boshqarish hamda kompaniyaning kapitallashuv darajasi, likvidligini va to'lovga layoqatligini ta'minlashga mo'ljallangan vositalar majmuasini anglatadi. [1]

Hozirda xalqaro amaliyotda sug'urta sohasiga oid tizim va mexanizmlarni o'zida mujassamlashtirgan holda sug'urta faoliyatini hamda sug'urta bozorlarini tartibga solish bo'yicha standartlar shakllangan. Moliyaviy mexanizmlar orqali sug'urta kompaniyalarining investitsion qarorlarini nazorat qilish, risklarni kamaytirish va kapital yetarlicligini ta'minlashga xizmat qiluvchi iqtisodiy vositalar majmuasi sifatida qaraladi. Jahon amaliyotida Solvency II, IAIS (sug'urta nazoratchilarining xalqaro uyushmasi) va IFRS 17 (Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari) kabi standartlar moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda asosiy rol o'ynaydi. O'zbekiston sug'urta bozorida ham

ushbu yondashuvlarni joriy etish, investitsion faoliyatni tartibga soluvchi huquqiy va institutsional mexanizmlarni takomillashtirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Mazkur maqolada sug'urta kompaniyalarining investitsion faoliyatida moliyaviy mexanizmlarning nazariy asoslari, amaliy holati hamda O'zbekiston sharoitida ularni takomillashtirish yo'nalishlari ilmiy tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).

Sug'urta kompaniyalari faoliyati nafaqat risklarni taqsimlash va moliyaviy himoya funksiyasini bajaradi, balki mamlakat moliya tizimining barqarorligiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, ularning investitsion faoliyatini tartibga solish mexanizmlarini o'rganish bugungi kunda dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biridir.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan A.Vahobov, T.Malikovlarning fikricha yuridik jihatdan mustaqil bo'lgan korxonaga uzoq muddat (bir yildan kam bo'lmagan) davomida qo'shimcha foyda olish, ta'sir etish doirasini sotib olish maqsadlarida yoki shu sohada o'z faoliyatini tashkil qilgandan ko'ra uni shunday qo'yish (sarf etish) afzalroq bo'lganligi uchun kapitalni joylashtirish ekanligi, foyda (daromad) olish va ijobiy ijtimoiy samaraga erishish maqsadida pul mablag'lari, maqsadli bank omonatlari, aksiyalar va boshqa qimmatbaho qog'ozlar, texnologiyalar, mashinalar, asbob-uskunalar, litsenziyalar, kreditlar, boshqa har xil mulklar yoki mulkiy huquqlar hamda intellektual boyliklarni tadbirkorlik va faoliyatning boshqa turlari ob'ektlariga qo'yilishining barchasi investitsiyalar hisoblanishi, investitsiyalarning moliyaviy, real, yalpi, sof, xususiy va davlat kabi turlari bo'lishi mumkinligini ta'kidlashadi. [2]

Nazariy jihatdan sug'urta kompaniyalari investitsion faoliyatining mohiyati bozor iqtisodiyoti sharoitida bo'sh mablag'larni samarali joylashtirish, daromadlilikni oshirish va to'lovga qobiliyatlilikni ta'minlash bilan belgilanadi. J.K. Shiller, F. Mishkin va M. Bailey kabi xorijiy iqtisodchilar asarlarida sug'urta kompaniyalari moliyaviy bozorlarda institutsional investor sifatidagi roli, risk va rentabellik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash masalalari yoritilgan.

Xususan, T.A. Fyodorov (2009) fikricha sug'urta tashkilotlarining investitsion resurslari — bu ularning o'z mablag'lari (ustav kapitali, zaxira kapitali, qo'shimcha kapital va taqsimlanmagan foyda) hamda yig'ilgan sug'urta mukofotlari hisobidan shakllantiriladigan sug'urta zaxiralari ko'rinishidagi jalb qilingan mablag'lardir. Sug'urta tashkilotining investitsion kapitalidan foydalanishning o'ziga xosligi shundaki, uning asosiy manbai sug'urtalovchilarning sug'urta mukofotlaridir. O'z mablag'larini to'ldirish sug'urtalovchining daromadlariga bog'liq bo'lsa, sug'urta zaxiralari shakllantirish esa olingan mukofotlar va amaldagi sug'urta shartnomalari bo'yicha majburiyatlarga bog'liqdir. Shu bilan birga, sug'urta majburiyatlariga nisbatan sug'urtalovchining o'z kapitali ushbu majburiyatlarning o'z vaqtida to'liq bajarilishini kafolatlovchi omil sifatida xizmat qiladi. [3]

N. Nikulina va S. Berezina sug'urtalovchining investitsion xavfi — bu aktivlarni yo'qotish yoki ulardan kutilgan daromadni olmaslik ehtimoli bilan bog'liq holda investitsion daromadni to'liq olmaslikning noaniq imkoniyati ekanligi, bu holat sug'urta tashkilotining moliyaviy barqarorligini buzishga va natijada sug'urtalovchining sug'urta to'lovlari bo'yicha majburiyatlarini bajarmasligiga olib kelishi mumkinligini takidlaydilar [4].

Yevropa Ittifoqi tajribasida Solvency II me'yorlari sug'urta kompaniyalari investitsion faoliyatini tartibga solishda asosiy huquqiy mexanizm sifatida qaraladi. [5] Ushbu tizim kapital yetariligi, riskga asoslangan nazorat va aktiv-majburiyat muvozanatini saqlash tamoyillariga tayanadi. Mazkur tizimni o'rganish O'zbekiston sug'urta bozorida ham investitsion siyosatni takomillashtirish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston qonunchiligida ham sug'urta tashkilotlarining investitsiya faoliyatini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha maqsadlar belgilangan bo'lib sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish bo'yicha yo'l xaritasida [6] Sug'urta tashkilotlarining sug'urta va investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tanqidiy qayta ko'rib chiqish hamda zamonaviy talablarga muvofiqligini ta'minlash vazifasi belgilangan.

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Methods/Методы).

Mazkur ilmiy maqolada tizimli tahlil va yondashuv, mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish va umumlashtirish, ekspert baholash va prognozlash, ekonometrik modellashtirish, o'zaro va qiyosiy taqqoslash usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi (Анализ и результаты. Analysis and results).

Shuni ta'kidlash kerakki, sug'urta biznesi ko'p hollarda shunday tuzilganki, kompaniya o'z xizmatlari uchun to'lovni oldindan oladi, sug'urta to'lovlari esa ma'lum vaqt o'tgach amalga oshiriladi. Bu esa sug'urta kompaniyasiga o'z hisoblarida sezilarli miqdordagi mablag'larni to'plash va ularni investitsiyalarga yo'naltirish imkonini beradi.

Shu sababli investitsion faoliyatdan olinadigan daromad sug'urta operatsiyalaridan olinadigan daromaddan ancha yuqori bo'lishi mumkin. Biroq investitsiyalarni noto'g'ri boshqarish katta zararlarning, hattoki operatsion faoliyatdagi yo'qotishlardan ham ortiq zararlarning sababi bo'lishi mumkin, bu esa oxir-oqibat sug'urta kompaniyasining bankrot bo'lishiga olib keladi.

Umuman olganda, sug'urta kompaniyasining investitsion xatarlarini quyidagi tarkibiy qismlarga shartli ravishda ajratish mumkin (1-rasm):



1-rasm. Sug'urta kompaniyasining investitsion xatarlari 1

Aktivlar qiymatining o'zgarish xavfi — bu aktivlarning ma'lum bir vaqt oralig'ida qadrsizlanishidir.

Foiz stavkalari xavfi — bu ham qadrsizlanish xatari turi bo'lib, ammo qarz instrumentlariga tegishlidir. Gap shundaki, agar bozor foiz stavkalari oshsa, qarz instrumentlarining qiymati pasayadi, chunki aktivning

nominal oqimlari o'zgarmaydi, biroq diskont stavkasi ortadi, natijada adolatli (haqiqiy) qiymat kamayadi.

Va nihoyat, defolt xavfi — bu siz sotib olgan emitent (aksiya yoki obligatsiya chiqaruvchisi) bankrot bo'lishi xavfidir, natijada siz bu aktivni ortga sota olmasiz.

Mazkur maqolaning maqsadi faqat sug'urta kompaniyasida mavjud bo'lgan investitsion xatarlarni ko'rsatish emas. Bu xatarlar boshqa har qanday sanoat yoki bank tuzilmasidagi xatarlar bilan bir xil. Bizning vazifamiz — ushbu xatarlarni qanday boshqarish va ularni minimal darajagacha kamaytirish mumkinligini ko'rsatishdir.

Sug'urta tashkilotlarining balansiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, unda aktivlar va majburiyatlarning qaysi turlari qanday xatarlarga duchor bo'lishi ko'rsatilgan.

Investitsion xatarlarni boshqarish vazifasi — turli aktivlarga investitsiya kiritishda qanday cheklolvar qo'yilishi kerakligini aniqlashdan iborat. Bu cheklolvar shunday bo'lishi lozimki, yuqorida sanab o'tilgan investitsion xatarlardan hech biri, masalan, bir yil davomida sug'urta tashkilotining bankrotlik xavfiga olib keluvchi zarar keltira olmasin.

Sug'urta tashkilotlarining investitsion xatarlarini qanday boshqarish kerakligini tushuntirish uchun avvalo investitsiyalarning umumiy nazariyasiga murojaat qilish, shuningdek, bunday boshqaruv har qanday kompaniya uchun qanday amalga oshirilishini ko'rsatish zarur.

1-jadval Sug'urta tashkilotlari balansi doirasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklar²

| AKTIVLAR | PASSIVLAR |
|---|---|
| Aksiyalar va ulushli instrumentlarga investitsiyalar (emitentni defolt bo'lishi, qiymatning o'zgarishi) | Hususiy kapital |
| Qarz majburiyati bilan bog'liq instrumentlarga investitsiyalar (defolt bo'lish, foiz riski) | Sug'urta zaxiralari (yetarli darajada shakllanmaslik riski) |
| Tijorat banklariga depozit qo'yilmalari (defolt bo'lish) | Kreditlar va zaymlar (foiz risklari) |
| Sug'urta zaxiralari qayta sug'urtalovchilarning ulushi (defolt bo'lish) | Kreditor qarzdorlik (defolt riski) |
| Debitor qarzdorliklar (defolt bo'lish) | |
| Ko'chmas mulkka qo'yilmalar (mulk qiymatining o'zgarishi) | |
| Asosiy vositalar (asosiy vositalar qiymatining o'zgarishi) | |
| Pul mablag'lari | |

Investitsiyalar nazariyasida o'rganish obyekti — bu investitsiya portfeli hisoblanadi (qimmatli qog'ozlarga, ko'chmas mulkka, bank omonatlariga va moddiy boyliklarga kiritilgan investitsiyalar).

Har bir investitsiya yillik daromadlilik ko'rsatkichlari bilan tavsiflanadi: qiymatning oshishi va ushbu investitsiyadan olinadigan daromad (olingan dividendlar, foiz stavkalari bo'yicha daromadlar, davr mobaynidagi sof foyda). Shu bilan birga, har bir investitsiya "pasayish" ko'rsatkichi bilan ham xarakterlanadi, ya'ni muvaffaqiyatsiz investitsiya holatida bir yil davomida qancha zarar ko'rilishi mumkinligini bildiradi.

Har bir investor o'zi uchun "pasayishning" maksimal darajasini — ya'ni xavfga nisbatan toqat (riskka bardoshlilik) darajasini belgilab oladi.

Masalan, Rossiya qimmatli qog'ozlar bozorida yirik kompaniyalar (ya'ni "ko'k chiplar") aksiyalariga sarmoya kiritayotgan investor, agar investitsiya muvaffaqiyatsiz chiqsa, bir yil davomida 20 foiz yoki undan ko'proq zarar ko'rishi mumkinligini tushunadi. Aksincha, pullarini bank depozitiga joylashtirgan investor esa o'z sarmoyasining hatto 2 foizini yo'qotishini ham kutilmagan holat deb hisoblaydi.

Shu bilan birga, aksiyalar bozorida investitsiyalar daromadlilikligi bank depozitlari daromadlilikidan ancha yuqori ekanligi ham ma'lum. Biroq ba'zan investitsiyaning "pasayish" xavfi kutilayotgan daromadga nisbatan haddan tashqari yuqori bo'lishi mumkin. Bunday investitsiyalardan voz kechish maqsadga muvofiqdir.

Shu sababli, turli aktivlarga mablag'larni to'g'ri joylashtirish uchun xavf omilini inobatga olgan holda investitsiyalarning "samaradorlik"

¹ Muallif tomonidan tayyorlandi

² O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2009-yil 19-martdagi 37-son "Sug'urtalovchilarning moliyaviy hisobot shakllarini va ularni to'ldirish bo'yicha qoidalarni tasdiqlash to'g'risida" gi buyrug'i asosida muallif tomonidan tayyorlandi

ko'rsatkichlarini tahlil qilish muhimdir. Investitsiyalar nazariyasida bunday ko'rsatkichlarning to'rttasi mavjud:

1. Sharp koeffitsienti (Sharpe Ratio):

$$S_p = \frac{R_p - R_f}{\delta_p}$$

R_p – investitsiya daromadligi;

R_f – xavfsiz (risksiz) investitsiya daromadligi;

δ_p – investitsiya daromadligining o'rtacha kvadratik og'ishi.

2. Axborot nisbati koeffitsienti (Information Ratio):

$$IR_p = \frac{R_p - R_B}{\delta_p(R_p - R_B)}$$

R_B – bazaviy investitsiya daromadligi;

$\delta_p(R_p - R_B)$ – investitsiya va bazaviy investitsiya daromadligi o'rtasidagi farqning o'rtacha kvadratik og'ishi.

3. Xavfni hisobga olgan kapital rentabelligi (Risk Adjusted Return on Capital, RAROC):

$$RAROC = \frac{R_p}{VAR_p}$$

bu yerda

VAR_p – mazkur investitsiya uchun zarur bo'lgan xavf ostidagi kapitalni (ma'lum ishonchlik darajasida bankrotlik ehtimolini kamaytiruvchi kapital) bildiradi.

4. Maksimal pasayishga nisbatan daromadlilik (Return Over Maximum Drawdown, ROMAD):


$$ROMAD = \frac{R_p}{maxDRD}$$

bu yerda

$maxDRD$ – aktiv qiymatining kuzatilgan davrdagi maksimal pasayishi.

Amaliyotda eng ko'p qo'llaniladigan ko'rsatkichlar – Sharp koeffitsienti, RAROC va daromadlilikning maksimal pasayishga nisbati hisoblanadi [7].

Shu o'rinda O'zbekistondagi sug'urta kompaniyalarining investitsiya qo'yilmalariga e'tibor qaratsak, 2-rasmda 2023-2024-yillarda Sug'urta tashkilotlarining investitsiya qo'yilmalarining o'sish tendensiyalari keltirilgan. 2024-yilda jami investitsiya portfeli 6,5 trln.so'mni tashkil etib, qariyb 70 foizi depozit qo'yilmalariga to'g'ri keladi. Depozit qo'yilmalari 2023-yilga nisbatan 4 foizga oshganligini, ko'chmas mulk va qimmatli qog'ozlarga qo'yilmalar mutanosib ravishda 2 foizdan kamaygan.



2-rasm. 2023-2024-yillarda O'zbekiston sug'urta kompaniyalarining investitsiya qo'yilmalari salmog'i

Mahalliy reyting agentligi STANDARD AND SENSITIVE RATINGS ning tahliliga ko'ra Sug'urta tashkilotlarining jami investitsiya portfelida qisqa muddatli investitsiyalarning salmog'i 2023-yilda 55,68 foizni tashkil etgan bo'lsa 2024-yilda ushbu ko'rsatkich 67,82 foizni tashkil etgan. Asosiy ta'sischi bo'lgan "Biznesni rivojlantirish banki" ATB (avvalgi nomi "Qishloq qurilish bank" ATB) ning "Infinity Insurance" AJ (avvalgi nomi "Perfect Insurance" AJ) 2023-yilda 97,31 foizni tashkil etgan bo'lsa 2024-yil yakunlari bo'yicha 7,4 foizni tashkil etgan. Bir yil davomida Kompaniya investitsiya portfelida qisqa muddatli investitsiyalar qariyb 90 foizga qisqargan.

³ Istiqbolli loyihalar milliy agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

2-jadval
2023-2024-yillarda O'zbekiston sug'urta bozori investitsiya portfelida qisqa muddatli investitsiyalar salmog'i yuqori bo'lgan top-10 sug'urta tashkilotlari

| t/r | Sug'urta kompaniyalari nomi | 2023-yil | 2024-yil |
|-----|---|----------|----------|
| 1. | IMKON-SUG'URTA | 97,32% | 97,18% |
| 2. | HAMKOR SUG'URTA | 96,15% | 96,34% |
| 3. | XALQ SUG'URTA | 94,03% | 94,55% |
| 4. | ARIA SUG'URTA TASHKILOTI | 94,73% | 89,89% |
| 5. | SQB INSURANCE SUG'URTA KOMPANIYASI | 92,84% | 89,12% |
| 6. | O'ZBEKINVEST HAYOT SUG'URTA KOMPANIYASI | 80,54% | 84,39% |
| 7. | AGROS HAYOT SUG'URTA KOMPANIYASI | 84,70% | 84,19% |
| 8. | INGO-UZBEKISTON SUG'URTA | 67,45% | 81,58% |
| 9. | KAFOLAT HAYOT INSURANCE | 67,24% | 75,51% |
| 10. | ALFA LIFE INSURANCE | 64,23% | 69,05% |

2-jadval ma'lumotlarida shuni anglash mumkinki Imkon-sug'urta va Hamkor-sug'urta kompaniyalari qisqa muddatli investitsiyalarning eng yuqori ulushiga ega bo'lib, ularning portfelining 96-97 foizini tashkil etadi. Bu ko'rsatkichlar 2023-2024-yillar davomida deyarli o'zgarishsiz saqlanib qolgan, bu ularning barqaror investitsiya strategiyasidan dalolat beradi.

Aria-sug'urta tashkiloti va SQB-insurance kompaniyalari qisqa muddatli investitsiyalarning ulushini sezilarli darajada qisqartirishga muvaffaq bo'lishdi. Jami investitsiyalarda qisqa muddatli investitsiyalarning salmog'ini yuqori bo'lishi O'zbekiston sharoitida yuqori likvid aktivlarga egaligini va bu orqali sug'urta faoliyati bilan bog'liq majburiyatlar yuzaga kelganda shartnomaviy munosabatlar va qonunchilikda belgilangan muddatlarda bartaraf etish imkonini beradi

Xulosa va takliflar (Заключение. Conclusion).

Sug'urta kompaniyalari moliya tizimining muhim tarkibiy bo'g'ini sifatida iqtisodiyotda nafaqat risklarni kompensatsiya qilish, balki investitsion resurslarni shakllantirish va ularni samarali taqsimlash orqali iqtisodiy o'sishga hissa qo'shadi. Ularning investitsion faoliyatini tartibga solish jarayonida moliyaviy mexanizmlarning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi, chunki aynan shu mexanizmlar sug'urta tashkilotlarining barqarorligi, likvidligi hamda to'lov qobiliyatini ta'minlaydi. Tadqiqot davomida ushbu mexanizmlarning nazariy asoslari, amaliy qo'llanishi va O'zbekiston sharoitidagi o'ziga xos jihatlari atroflicha tahlil qilindi.

Nazariy jihatdan qaralganda, sug'urta kompaniyalarining investitsion faoliyati moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash orqali iqtisodiy jarayonlarning muvozanatini saqlashga xizmat qiladi. Sug'urta mukofotlari, rezerv fondlari va ustav kapitali hisobidan shakllangan mablag'lar turli moliyaviy instrumentlarga joylashtirilib, davlat va xususiy sektorda moliyaviy oqimlarni faollashtiradi. Bu jarayonda moliyaviy mexanizmlar – ya'ni soliq, kredit, foiz, investitsion siyosat, risklarni boshqarish tizimi hamda davlat tomonidan tartibga solish vositalari muhim o'rin tutadi.

Sug'urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan investitsion risklarni kamaytirish, aktivlarni diversifikatsiya qilish va kapital yetarligini ta'minlash bo'yicha amaliy mexanizmlardan foydalanishni boshlagan bo'lsada shunga qaramay, mavjud tahlillar shuni ko'rsatadiki, hozirgi kunda sug'urta kompaniyalari investitsion faoliyatida bir qator muammolar mavjud. Eng avvalo, investitsiyalar asosan qisqa muddatli va past rentabelli instrumentlarga yo'naltirilgan. Bank depozitlari haddan tashqari bog'liqlik, fond bozorining sust rivojlanishi, risklarni tahlil qilish va investitsion strategiyalarni ishlab chiqish bo'yicha malakali mutaxassislar yetishmasligi sohaning rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda. Bundan tashqari, xorijiy investorlar uchun yetarlicha ochiqlik va ishonchli huquqiy kafolatlar mavjud emas.

Shu sababli, O'zbekiston sug'urta bozorini modernizatsiya qilish jarayonida moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish ustuvor vazifalardan biridir. Bunda xalqaro tajriba asosida Solvency II tizimiga

⁴ <https://snsratings.uz/> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

o'xshash riskka asoslangan kapital modeli joriy etilishi, investitsion portfellarni diversifikatsiya qilish, "yashil" va ijtimoiy obligatsiyalar kabi zamonaviy moliyaviy vositalardan foydalanishni rag'batlantirish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, sug'urta kompaniyalarida korporativ boshqaruvni kuchaytirish, investitsion faoliyat bo'yicha strategik rejalashtirish va monitoring tizimini yaratish zarur.

Sug'urta tashkilotlari o'z mablag'lari manbalari va taqsimlanmagan foydadan ustav jamg'armasini oshirganda emissiya qarori bilan birga

kompaniya faoliyatini majburiy aktuar tekshiruvdan o'tkazish amaliyotini joriy etish orqali taqsimlanmagan foydada shakllangan pul mablag'larida sug'urta faoliyatini tartibga solish bilan bog'liq prudensial me'yorlarni buzilishini oldi olingan bo'lar edi. Ushbu mexanizm ham korporativ nuqtai nazardan ham moliyaviy xo'jalik faoliyati nuqtai nazardan ham asosiy faoliyat bo'lgan sug'urta faoliyatining uyg'unlashgan bir mexanizmi sifatida qaralishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

1. <https://www.ebsco.com/research-starters/business-and-management/financial-strategies-and-analysis-insurance>
2. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik/Toshkent moliya institute. – Toshkent: "Noshir", 2012. 712-bet
3. Страхование: учебник/под ред.Т.А.Федоровой.–3-е изд., С83 перераб. И доп. – М.: Магистр, 2009.–1006 с
4. Страхование. Теория и практика : учеб. Пособ./ Н.Н.Никулина, С.В. Березина.–2-изд.,перераб. и доп.–М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2008.-511 с.
5. FinCAD Derivatives news «Market experts criticize costly measure of adopting new Solvency II rules» <http://derivative-news.fincad.com/derivatives-regulations/market-experts-criticize-costly-nature-of-adopting-new-solvency-ii-rules-3034/>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-martdagi PQ-108-sonli "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori
7. <https://web.stanford.edu/~wfsarpe/art/sr/SR.htm>.